

FORMATION OF CONSTITUTIONAL LITERACY OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS

Jabborova O. M.

Associate Professor of Chirchik State Pedagogical University

Ashurova D.R.

Student of Chirchik State Pedagogical University

ABSTRACT

The article analyzes the issue of formation of constitutional literacy of primary school students.

Keywords: education, primary, student, constitution, literacy, knowledge, understanding, practice.

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING KONSTITUSIYAVIY SAVODXONLIGINI SHAKLLANTIRISH

Jabborova O.M.

Chirchqiy Davlat Pedagogika Universiteti dotsenti

Ashurova D.R.

Chirchqiy Davlat Pedagogika Universiteti talabasi

ABSTRACT

Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining konstitusiyaviy savodxonligini shakllantirish masalasi tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim, boshlang'ich, o'quvchi, konstitusiya, savodxonlik, bilim, tushuncha, amaliyot.

O'zbekistonda boshlang'ich ta'limning samaradorligini oshirish va uning asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarini innovasion jamiyat talablari asosida tarbiyalash ishlari amalga oshirilmoqda. Shu jihatdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti quyidagi vazifani qo'ydi "barkamol avlod, milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida voyaga yetayotgan yoshlar tarbiyasi Konstitutsiyada mustahamkamlangan norma va qoidalarni farzandlarimiz ongiga singdirishdan boshlanishi zarur" [1]. Shu jihatdan boshlang'ich sinf o'quvchilarining konstitusiyaviy savodxonligini shakllantirish bugungi boshlang'ich ta'lim jarayonining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. E'tiboringizni ana shu masalaning eng asosiy xususiyatlari tahliliga tortamiz.

1. Tushunchalarni belgilab olish. Unga ko'ra, boshlang'ich sinf o'quvchilari ongiga singdiriladigan eng asosiy konstitusiyaviy tushunchalarni belgilab olish taqozo etiladi. Bizning yondashuvimizga ko'ra, bunday tushunchalarning asosiylari konstitutsiyada aks etgan bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

- huquq;
- manfaat;

- shaxs;
- burch;
- mas'uliyat;
- majburiyat.

Mazkur tushunchalar boshlang'ich sinf o'quvchilarining ongiga singdirilishi ularning konstitutsiyaviy savodxonligini maqsadli shakllantirishga asos bo'ladi. Chunki takidlangan tushunchalar Konstitutsiyamizda bir necha bor takrorlanadi va ular asosida shaxs hamda jamiyatning xuquq va majburiyatlari berilgan qo'yilgan [2].

2.Tushunchalarni o'rgatish metodikasini ishlab chiqish. Unga ko'ra, boshlang'ich sinf o'quvchilari ongiga konstitutsiyaviy tushunchalarni singdirish metodikasi ishlab chiqilishi kerak. Hozirgi kunda amalda bo'lgan boshlang'ich sinflarning "Konstitutsiya olamiga sayohat" darsligining metodikasi takomillashtirilishi lozim. Shu ma'noda konstitutsiyaviy tushunchalarni boshlang'ich sinf o'quvchilari ongiga singdirish metodikasida quyidagilarga asoslanish kutilgan samarani beradi:

- o'quvchilarning konstitutsiyaviy bo'lgan qiziqishini shakllantirish;
- o'quvchilarga ta'kidlangan eng asosiy konstitutsiyaviy tushunchalarni chuqur tushuntirish;
- o'quvchilarning konstitutsiya bo'yicha bilimlarini shakllantirish.

Mazkur metodika asosida boshlang'ich sinf o'quvchilari ongiga konstitutsiyaviy tushunchalarni kutilgan darajada singdirish mumkin.

3.Tushunchalarning singdirilganlik darajasini aniqlash. Unga ko'ra, boshlang'ich sinf o'quvchilari ongida konstitutsiyaviy tushunchalarning shakllanganlik darajasi aniqlanishi kerak. Buning uchun yangicha asosdagi metodikani ishlab chiqishga zarurat borligini takidlash lozim. Bizning yondashuvimizga ko'ra, boshlang'ich sinf o'quvchilarida konstitutsiyaviy tushunchalarning singdirilganlik darajasini aniqlashda quyidagilarga e'tibor berish kutilgan samarani beradi:

- o'quvchilarning konstitutsiyaviy tushunchalarini bilish darajasi;
- o'quvchilarning konstitutsiyaviy tushunchalarni tushunish darajasi;
- o'quvchilarning konstitutsiyaviy tushunchalardan foydalana olish darajasi.

Bunday yondashuv boshlang'ich sinf o'quvchilari ongida konstitutsiyaviy tushunchalarning shakllanganlik darajasini aniqlash imkonini beradi.

E'ribor berilsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarining konstitutsiyaviy savodxonligini shakllantirish hozirgi boshlang'ich ta'limning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Bu masala quyidagilar bilan belgilanadi:

- a) boshlang'ich sinf o'quvchilarining konstitutsiyaviy tushunchalarini shakllantirish bilan ularning ongida xuquq, manfaat, burch, majburiyat va mas'uliyat tushunchalarining tarkib topishiga erishish;
- b) boshlang'ich sinf o'quvchilarini ta'limning keyingi bosqichida Konstitutsiyani o'rganishga tayyorlash;
- v) boshlang'ich sinf o'quvchilarining xuquqiy ongi va madaniyatini shakllantirishga erishish.

Mazkur samaralar natijasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining konstitutsiyaviy savodxonligini kutilgan darajada shakllantirishga erishish mumkin bo'ladi.

Kezi kelganda ta'kidlash lozimki, mamlakatimizda boshlang'ich sinf o'quvchilarining konstitutsiyaviy savodxonligini shakllantirish bo'yicha o'ziga xos metodikalar ishlab chiqilgan emas. Shu sababli bu borada quyidagilarga e'tibir berish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- eng tajribali boshlang'ich sinf o'qituvchilarining individual metodlarini o'rganish;
- boshlang'ich sinf o'quvchilarining xuquqiy ongi va madaniyatini shakllantirish bo'yicha horijiy tajribalarni o'rganish;
- boshlang'ich sinf o'quvchilari ongiga konstitutsiyaviy tushunchalarni singdirish nazariyasi va metodikasi masalalari bo'yicha ilmiy-tadqiqotlar olib borish.

Bunday yondashuv boshlang'ich sinf o'quvchilarining konstitutsiyaviy savodxonligini shakllantirish bo'yicha o'ziga xos metodikani ishlab chiqishga olib keladi.

Shunday qilib boshlang'ich sinf o'quvchilarining konstitutsiyaviy savodxonligini shakllantirish muhim xususiyatlarga egaligi bilan diqqatni tortadi. Shu sababli bu masala asoslari bo'yicha oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf pedagoglariga nazariy bilim, amaliy ko'nikma va kasbiy malaka berishni taqozo etadi. Buning uchun mutaxassislik fanlarini chuqurlashtirib o'qitish maqsadga muvofiq bo'ladi.

REFERENCES

1. Mirziyoyev SH.M Konstitutsiyaviy islohotlarimizning bosh maqsadi-inson qadri, xalq manfaatini amalda ta'minlashdir.//” Yangi O'zbekiston” gazetasi 2022-yil 21-iyun soni.
2. O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi. –Toshkent, 2022.
3. Жабборова, О., Ташпулатова, Д. (2021). Бошланғич синф ўқитувчиларининг малака талаблари. *Ekonomika i sotsium*, 5(84).
4. Каримжонов, А., Жабборова, О. (2021). Ян Амос Коменскийнинг таълим-тарбияга оид қарашлари. *Ekonomika i sotsium*, 5(84).
5. Жабборова, О. М., Ахмедова, Н. Ш. (2021). Бошланғич синф ўқувчиларини миллий ғоя асосида тарбиялаш омиллари. *Ekonomika i sotsium*, 4(83).
6. Jabborova, O. M. (2021). Systems for The Development of Primary Education in The Process of Higher Pedagogical Education. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 3(04), 449-453.
7. Jabborova, O. M., & Mardonov, Sh. Q. (2021). Ta'lim jarayoniga innovatsiyalarni tatbiq qilishning tashkiliy-pedagogik jihatlari. *Xalq ta'limi jurnali*, 2.
8. Жабборова, О. М. (2021). Мураккаб шароитларда бўлажак тасвирий санъат ўқитувчиларини касбий тайёрлаш. *Ekonomika i sotsium*, 4(83).
9. Жабборова, О. М. (2021). Бошланғич таълимда интеграциялаш масалалари. *Academic research in educational sciences*, 2(4), 702-706.
10. Жабборова, О. М., Бахтиёрова, С. Э. (2021). Бошланғич таълим йўналишида хорижий тилларни ўқитишнинг янгича ёндашувлар тизими. *Academic research in educational sciences*, 2(3), 1040-1045.
11. Жабборова, О. М., Ташпулатова, Д. М. (2021). Ўзбекистон янги мафкурасининг педагогик талқини. *Academic research in educational sciences*, 2(3), 584-589.
12. Жабборова, О. М., Ташпулатова, Д. М. (2021). Бошланғич синф ўқитувчиларига қўйиладиган талаблар. *Academic research in educational sciences*, 2(2).